

Navoiy viloyatida demografik holat

2025-yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari
va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2025-yilning 1-oktabr holatiga Navoiy viloyatining doimiy aholisi soni **1 108,6** ming kishini tashkil etib, 2024-yilning 1-oktabr holatiga nisbatan **1,7** foizga ko'paygan. 2025-yil yanvar-sentabr oylarida tug'ilganlar soni **18 594** nafarni, vafot etganlar **3 539** nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **15 055** kishiga teng bo'ldi. Mamlakatimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni **12** kishini va mamlakatdan xorijga ko'chib ketganlar soni **1 271** kishini tashkil etdi. Qayd etilgan nikohlar **5 500** birlikni, nikohdan ajralishlar **1 002** birlikni tashkil etgan.

Doimiy aholi soni	1 108,6	ming kishi
Tug'ilganlar soni	18 594	kishi
Vafot etganlar soni	3 539	kishi
Xorijdan ko'chib kelganlar	12	kishi
Xorijga ko'chib ketganlar	1 271	kishi
Nikohlar soni	5 500	birlik
Nikohdan ajralishlar soni	1 002	birlik

II. Doimiy aholi soni


Navoiy viloyatida doimiy aholi soni 2025-yil 1-oktabr holatiga ko'ra **1 108,6** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **18,6** ming kishiga yoki **1,7** foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **547,4** ming kishi (jami aholi soniga nisbatan **49,4** %) hamda qishloq joylarda **561,2** ming kishi (**50,6** %) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **547,0** ming kishini (**49,3** %), erkaklar esa **561,6** ming kishini (**50,7** %) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni, ming kishi

	2024-yil	2025-yil	O'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	1 090,0	1 108,6	101,7
Navoiy sh.	165,3	170,8	103,3
Zarafshon sh.	90,0	91,9	102,1
G'ozg'on sh.	9,3	9,4	101,1
tumanlar:			
Karmana	141,0	144,1	102,2
Konimex	37,2	36,9	99,2
Qiziltepa	163,9	166,5	101,6
Navbahor	122,3	123,7	101,1
Nurota	90,5	91,7	101,3
Tomdi	15,3	15,2	99,3
Uchquduq	39,5	39,9	101,0
Xatirchi	215,7	218,5	101,3

Navoiy viloyatida 2025-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **10,0** kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich **9,8** kishini, 2020-yilda esa ushbu ko'rsatkich **9,1** kishini tashkil etgan.

Aholi zichligi, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **18 594** kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **22,6** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **1 149** nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **3 539** kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,3** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **212** nafarga kamaygan.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, kishi



Viloyatda tirik tug'ilganlar soni **18 594** kishini, shundan o'g'il bolalar soni **9 506** kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **51,1%**), qiz bolalar soni **9 088** kishini (**48,9%**) va shahar joylarida **9 287** kishini (**50,0%**), qishloq joylarida **9 307** kishini (**50,0%**) tashkil etdi.

Viloyatda vafot etganlar soni **3 539** kishini, shundan erkaklar **1 963** kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **55,5%**), ayollar **1 576** kishini (**44,5%**) va shahar joylarida **1 825** kishini (**51,6%**), qishloq joylarida **1 714** kishini (**48,4%**) tashkil qildi.

Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi, kishi




IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni **5 500** birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **6,7** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **169** birlikka kamaygan.

Nikohdan ajralishlar soni **1 002** birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,2** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **88** birlikka ko'paydi.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, birlik



Viloyatda qayd etilgan nikohlar soni **5 500** birlikni, shundan shahar joylarida **2 714** birlikni (**49,3%**), qishloq joylarida **2 786** birlikni (**50,7%**) tashkil etdi.

Viloyatda nikohdan ajralishlar soni **1 002** birlikni, shundan shahar joylarida **606** birlikni (**60,5%**), qishloq joylarida **396** birlikni (**39,5%**) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, birlik



V. Aholi migratsiyasi


2025-yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **12 232** kishini, shu jumladan viloyat boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **12 220** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **12** kishini tashkil etdi.

Ko'chib ketganlar jami soni **13 397** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **12 126** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **1 271** kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Navoiy viloyati	12 232	12 220	12	13 397	12 126	1 271
Navoiy sh.	5 389	5 385	4	3 422	3 359	63
Zarafshon sh.	1 821	1 819	2	1 731	1 378	353
G'ozg'on sh.	13	13	-	32	32	-
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	2 041	2 041	-	1 669	1 667	2
Konimex	24	24	-	689	326	363
Qiziltepa	709	709	-	1 153	1 152	1
Navbahor	516	516	-	986	985	1
Nurota	215	214	1	759	747	12
Tomdi	178	178	-	381	132	249
Uchquduq	662	657	5	890	664	226
Xatirchi	664	664	-	1 685	1 684	1

Xorijdan ko'chib kelganlar va xorijga ko'chib ketganlar soni, kishi



VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
D. Shirmonova
79 222-80-00 (8571)

Manzil:
Navoiy shahri,
A.Temur ko'chasi 4-uy